

Date: 25th June-2026

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGIDA
UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.

Shernayeva Shahnoza Aqmirzayevna

O‘zbekiston Milliy universiteti

Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi.

shahnozashernayeva732@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy tayyorgarlik, empatiya, pedagogik amaliyot, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье проанализированы проблемы, возникающие в процессе профессиональной подготовки будущих учителей, а также пути их решения. Результаты исследования способствуют совершенствованию профессиональной подготовки будущих педагогов.

Ключевые слова: будущий учитель, профессиональная подготовка, эмпатия, педагогическая практика, инновационные технологии.

Abstract. This article analyzes the problems encountered in the process of professional training of future teachers and the ways to solve them. The results of the study contribute to improving the professional preparation of future educators.

Keywords: future teacher, professional training, empathy, pedagogical practice, innovative technologies.

Ma'lumki, o'qituvchilik kasbi jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim, eng prinsipial va samarali usullaridan biridir. U davlat buyurtmasi talablarini translyatsiya qilish, istalgan kelajakda zamonaviy jamiyatni shakllantirish uchun axloqiy tamoyillar va ustanovkalarni birlashtirish funksiyasini bajaradi. Ijtimoiy-psixologiya shaxslarni keng miqyosdagi ijtimoiy munosabatlar tizimida tadqiq etar ekan, ularning professional shakllanishi, kasbiy bilimdonligi va mahoratini oshishini ta'minlovchi ta'sirchan omillarni hamda mexanizmlarni ilmiy-psixologik nuqtai nazardan o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalaga bunday yondashishni amalga oshirish, avvalo professional kompetensiyani yuksaltiruvchi psixologik omillar rolini aniq tadqiqotlarning predmetiga aylantirish kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Zero, mustaqillik yillaridanoq yuksak malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi aniq belgilab olingan. Pedagog o'zining bilimi, tashqi qiyofasi, yurish-turishi, xulq atvori va muomala madaniyati bilan talabalarga o'rnak bo'lmog'i, shu bilan birga o'qituvchi hozirgi zamon fanining yangi usul va uslublaridan xabardor bo'lishi, bo'lg'usi pedagog zamonaviy pedagogik texnologiyalarning, ilg'or bilimlarning egasi sifatida kasbiy mahoratning eng yuqori talablariga javob bermog'i lozim.

Date: 25th June-2026

Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy tuzilmalaridan biri sifatida uning to'g'ri shakllanishining asosiy elementidir. Shunga ko'ra, kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi komponenti katta mas'uliyat yuklaydi, ular o'z navbatida keyingi avlodlarni o'qitish va tarbiyalash bilan shug'ullanadilar. Shu bilan birga, bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilar tayyorlash davrida kasbiy shakllanish jarayoni tegishli qarama-qarshiliklar bilan tavsiflanishi mumkin.

Olimlar o'quv jarayonini insonparvarlashtirishning zamonaviy talablari o'rtasida sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga e'tibor qaratish va ko'plab o'qituvchilarning bunday munosabatlarni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirishni istamasligi o'rtasida ma'lum bir tafovut mavjud degan xulosaga kelishdi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida uchraydigan muammolar va ularning yechimlari nazariy jihatdan bo'lajak o'qituvchilarning malakasini oshirish shartlari va oliy o'quv yurtining pedagogik amaliyotining haqiqiy shartlari shakllanganligidadir, bu har doim ham bir-biriga to'g'ri kelmaydi. M.M. Abdullaeva, L.B. Shneyder, Z.V. Yermakova ta'limni isloh qilish sharoitida kasbiy identifikatsiya muammosini o'rganib chiqib, an'anaviy ta'lim tizimi talabalarning oliy o'quv yurtida o'qish sharoitlariga moslashishini to'liq osonlashtirmaydi degan xulosaga kelishdi. Boshqa narsalar qatorida, bu qiyinchiliklar kasb tanlashda noaniqlik, kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlikning yetarli emasligi, o'z faoliyati va xulq-atvorini o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi nazorat qilishning shakllanmagan tizimi, mustaqil ish ko'nikmalarining yetishmasligi bilan bog'liq ekanligini aytib utishdi.

N.D. Artemova, Yu.V. Voronina o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorligi muammosini o'rganishda kasbiy pedagogik faoliyatni sifatli amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan quyidagi qiyinchiliklarni aniqlaydilar: empatiyaning past darajasi kasbiy faoliyatga qiziqishning kamayishi, vaziyatga asossiz baho berish tendensiyasi,

nizoli vaziyatda muammoni hal qilish uchun shaxsiy harakatlardan foydalanish o'rniga undan uzoqlashish tendensiyasi mavjud.

Olimlar o'quv jarayonini insonparvarlashtirishning zamonaviy talablari o'rtasida sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga e'tibor qaratish va ko'plab o'qituvchilarning bunday munosabatlarni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirishni istamasligi o'rtasida ma'lum bir tafovut mavjud degan xulosaga kelishdi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida uchraydigan muammolar qo'yidagidan iborat: nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish, kasbiy motivatsiyaning pastligi, innovatsion usullar va AKTdan foydalanish ko'nikmalari yetarli emasligi, kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanmaganligi, o'ziga ishonchning pastligi, muammoli vaziyatlarga yechim topishda qiyinchiliklarlardan iborat.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishidagi ta'kidlangan qarama-qarshiliklar, qoida tariqasida, talabani identifikatsiya qilish jarayonida, uning ta'lim faoliyatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu qarama-qarshiliklar bo'lajak pedagoglarning kommunikativ sohasini rivojlantirish, ularning o'zini anglashi, shaxsiy mas'uliyati,



Date: 25th June-2026

shuningdek shaxsiy axloqiy ustanovkalar va ustuvorliklar tizimini shakllantirishni dolzarblashtiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidagi asosiy muammolardan biri nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qiyinchiligidir. Bu muammoni hal qilish uchun talabalarni ta'lim muassasalarida ertaroq amaliyotga jalb qilish, ochiq darslar o'tkazish va tajribali o'qituvchilar faoliyatini kuzatish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidagi yichimlarga yana tuxtaladigagn bo'lsak ularga qo'yidagicha tafsiyalar berishimiz mumkin.

1. Zamonaviy o'qituvchi raqamli texnologiyalarni yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun talabalarga interaktiv doska, elektron ta'lim platformalari va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish muhim hisoblanadi.

2. O'qituvchining muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning muloqot madaniyatiga bog'liq. Talabalarda nutq madaniyati, tinglash ko'nikmalari va nizolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun treninglar va rolly o'yinlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

3. Ko'pchilik bo'lajak o'qituvchilar omma oldida chiqish qilishda hayajonlanadi. Buning oldini olish uchun psixologik treninglar, o'z-o'zini boshqarish usullari va stressga chidamlilikni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil qilish kerak.

4. Talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va mustaqil ta'lim resurslaridan foydalanishga o'rgatish orqali ularning kasbiy kompetentligini oshirish mumkin.

Xulosa

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidagi muammolarni bartaraf etish uchun amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, psixologik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish hamda talabalarining kasbiy motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu chora-tadbirlar raqobatbardosh va malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR;

1. Drujilov S.A. Individualnyy resurs professionalnogo razvitiya kak neobxodimoe uslovie stanovleniya professionalizma cheloveka // Mejdunarodnyy jurnal prikladnyx i fundamentalnyx issledohamdaniy. 2010. - № 5. - S. 145-148.
2. Rojers K. Stanovlenie lichnosti. Vzgl'yad na psixoterapiyu. - M.: Institut
3. G'oziev Y. oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2006. – 164 b.
4. Davletshin M.G. obshaya psixologiya T. 2002 g.
5. Shernayeva.SH.A. // Sotsialno-psixologicheskaya harakteristika budumix uchiteley // Vesnik 2023.Vpusk 30 chast 1. 367.368. 369 s. //

